

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI ONA TILI VA ADABIYOT FANI
O‘QITUVCHILARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
MALAKA SINOVIDA FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI ONA TILI VA ADABIYOT FANI
O‘QITUVCHILARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
MALAKA SINOVIDA FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari ona tili va adabiyot o‘quv fani o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezoni va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning ona tili va adabiyot fani, kasb standartlari va pedagogik mahorat bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig‘i taqdim

etiladi va umumiy test topshirig'ini bajarish uchun o'rta hisobda 105 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari (Y1)*), *moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari (Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari (Y3)* foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan.

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. ONA TILI		20 ta
1.1. O'qish savodxonligi (1 – 5 savollar)		
1.1. Ilmiy-ommabop matnni o'qib tushunish	– matn mazmuniga mos ma'lumotni aniqlash; – matn qismlari o'rtasidagi mazmuniy bog'liqliklarni aniqlash; – matn xronologiyasi, ketma-ketligini aniqlash; – matndagi fakt va fikrni farqlash, sabab-oqibatni anglash; – ma'lumotlarni taqqoslash, umumlashtirish, va jarayonlar ketma-ketligini tushunish.	5
1.2. Tildan amaliy foydalanish (6 – 13-savol)		
1.2.1. Talaffuz va imlo	– talaffuz va imlodagi tafovutlarni aniqlay olish; – bosh harflar, asos va qo'shimchalar, qo'shib va ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish kabi imlo qoidalarini bilish, foydalana olish; – fonetik o'zgarishlar (tovush ortishi, almashishi va tushishi)ni farqlay olish;	3
1.2.2. Punktuatsiya	– yozma nutqda tinish belgilarini (so'roq, undov, ko'p nuqta; vergul, tire, ikki nuqta; nuqtali vergul, qavs, qo'shtirnoq) to'g'ri ishlata olish;	2
1.2.3. Uslubiyat	– qo'shimchalarning kontekstdagi vazifasini tushunish, farqlash hamda to'g'ri qo'llash; – so'zlarning kontekstdagi ma'nosi va vazifasini tushunish, farqlash hamda to'g'ri qo'llash; – berilgan vaziyatga mos nutq namunalarini tanlash.	3
1.3. Til nazariyasi va lingvistik tahlil (14 – 20-savollar)		

1.3.Lingvistik tahlil	– matn (gap) tarkibidagi lisoniy birliklar (so‘zlar)ni fonetik me’asosida tahlil qilish; – matn (gap)ni hozirgi o‘zbek adabiy tili leksik me’yorlari asosida tahlil qilish; – matn (gap) tarkibidagi lisoniy birliklar(so‘zlar)ni morfemik me’yorlar asosida tahlil qilish; – matn (gap) tarkibidagi lisoniy birliklar(so‘zlar)ni morfologik me’yorlar asosida tahlil qilish; – matn (gap, so‘z birikmasi)ni sintaktik me’yorlar asosida tahlil qilish.	7
2. ADABIYOT		15 ta
2.1. Badiiy matn tahlili (21–25-savollar)		
Badiiy matn (nasr, drama) tahlili	– matn mazmuniga mos sarlavha tanlay olish; – muallif uslubini aniqlash; – qahramonlarning ruhiy holati va kechinmalarini aniqlash; – matnning umumiy mazmunini anglash; – ochiq aytilmagan fikrlar hamda asar mazmuniga xos ehtimollar asosida fikr yuritish.	5
2.2. Adabiyot tarixi (26–33-savollar)		
Milliy adabiyot	– umumiy o‘rta ta’lim dasturiga kiritilgan o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini tushunish, tahlil qilish va baholash; – umumiy o‘rta ta’lim dasturiga kiritilgan o‘zbek she’riyati namunalarini tushunish, tahlil qilish va baholash; – umumiy o‘rta ta’lim dasturiga kiritilgan o‘zbek nasri namunalarini tushunish, tahlil qilish va baholash; – umumiy o‘rta ta’lim dasturiga kiritilgan o‘zbek dramaturgiyasi namunalarini tushunish, tahlil qilish va baholash.	6
Jahon adabiyoti	– umumiy o‘rta ta’lim dasturiga kiritilgan jahon adabiyoti tarixida muhim o‘rin egallagan epik va dramatik asarlarni tushunish, tahlil qilish va baholash; – jahon adabiyoti tarixida muhim o‘rin egallagan lirik asarlarni tushunish, tahlil qilish va baholash.	2
2.3. Adabiyot nazariyasi va badiiy tahlil (34–35-savollar)		
Mumtoz lirika tahlili	– asarning janri, vazni va qofiyasi aniqlash, badiiy san’atlarni tahlil qilish; – mumtoz matn mazmunini anglash.	2
Jami		35 ta

Mutaxassislik fanidan test topshiriqlarini tuzishda foydalaniladigan matnlarga qo‘yiladigan talablar quyidagi jadvalda aks etgan:

2-jadval

T/r	Matnlar	Mazmuniy talabalar	Hajmiy talablar
------------	----------------	---------------------------	------------------------

1	Ilmiy-ommabop matn	<i>Akademik uslubda yozilgan, muayyan sohaga bag'ishlangan, keng auditoriyaga (nomutaxassisga) mo'ljallangan, grafik elementlarni ham o'z ichiga olgan ilmiy-ommabop matn (test topshiruvchi uchun notanish, amaldagi darsliklarga kiritilmagan)</i>	350-500 so'z
2	Badiiy matn (nasr, drama)	<i>O'zbek tilida yozilgan (yoki tarjima qilingan) badiiy matn (nasriy yoki dramatik asardan parcha) (test topshiruvchi uchun notanish, amaldagi darsliklarga kiritilmagan)</i>	350-500 so'z

Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

3-jadval

1. KASB STANDARTI (36 – 40-savollar)		5 ta
1.1. Kasbiy standartlar	– pedagogning kasbiy standartlari (o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish, hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish)ni bilish va pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish.	5
2. PEDAGOGIK MAHORAT (41 – 50-savollar)		10 ta
2.1. Umumiy pedagogika	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslari va yondashuvlarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlarini bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo'llay olish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to'g'ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to'g'ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo'llay olish, – ta'lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, evristik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish;	7

2.2. Ona tili va adabiyoti o'qitish metodikasi	– fan mazmun sohasini o'qitish yondashuvlari, metodikasi va texnologiyalarini bilish; – fan sohasini o'qitish usullari va metodlarini farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlash; – fan sohasini o'qitish bo'yicha berilgan ta'limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	3
Jami		15 ta

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

4-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanishini tushunish	8
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va jarayonlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	35
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy ballini hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 2 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, ishtirokchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar*

Ona tili

1. 5-sinf. Ona tili darsligi (I, II qism) darslik / K.M. Mavlonova, N.S.Hakimova, M.R.Siddiqov, S.H.Qo‘ldosheva; muharrir O.T.Madvaliyev. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.
2. 6-sinf. Ona tili darsligi I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, N.Hakimova, M.Siddiqov. Toshkent – 2022.
3. 7-sinf. Ona tili darsligi. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, N.Hakimova, M.Siddiqov. Toshkent – 2022.
4. 8-sinf. Ona tili darsligi. K.Mavlonova, G‘.Hamroyev, Sh.Abduraimov, S.Qo‘ldosheva, N.Hakimova. Toshkent – 2025.
5. 9-sinf. Ona tili darsligi. Sh.Abduraimov, M.Siddiqov, S.Atayeva, D.Israfilov. Toshkent – 2025.
6. 10-sinf. Ona tili darsligi. B.Mengliyev, Sh.Abdurahim, K.Mavlonova, M. Siddiqov, S.Atayeva. Toshkent – 2022.
7. 11-sinf. Ona tili darsligi. (1-qism) N.M.Mahmudov, Y.R.Odilov, G.Sh. Ziyodullayeva. Toshkent – 2018.
8. 11-sinf. Ona tili darsligi. (2-qism) B.Mengliyev, Sh.Toshmirzayeva, S.Atayeva, S.Majidova. Toshkent – 2020.
9. “O‘zbek tilining katta imlo lug‘ati” – E.A.Begmatov, A.R.Madvaliyev, Y.R.Odilov. Toshkent: “Kafolat print company” nashriyoti, 2023.
10. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” – A.Madvaliyev, N.Mahkamov. D.Xudoyberganova, O.Odilov. “O‘zbekiston nashriyoti” Toshkent – 2021.

Adabiyot

1. 5-sinf adabiyot darsligi (I, II qismlar). Q.B.Yo‘ldoshev, O.O.Olimjonov, N.N.Yusufjonova, S.I.Qambarova, D.B.To‘xliyeva; muharrir X.A.Ibrohimov. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.
2. 6-sinf adabiyot darsligi. Z.Mirzayeva, K.Jalilov Toshkent – 2022.
3. 7-sinf adabiyot darsligi. Z.Mirzayeva, K.Jalilov Toshkent – 2022.
4. 8-sinf adabiyot darsligi. Z.Mirzayeva, N.Qodirova, Q.Mamiraliyev. Toshkent – 2025.
5. 9-sinf adabiyot darsligi. J.Nurmuhammadov, D.Yusupova, O.Olimjanov. Toshkent – 2025.
6. 10-sinf adabiyot darsligi (I, II qismlar). Z.Mirzayeva, K.Jalilov Toshkent– 2024.
7. 11-sinf adabiyot darsligi. 1-qism. B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova Toshkent–2018.

8. 11-sinf adabiyot darsligi. 2-qism. B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Toshkent–2018.

9. Dilnavoz Yusupova “G‘azallar sharhi” – Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi 27-jild. Toshkent – 2022.

VIII. Pedagogik mahorat va kasb standartlari bo‘yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.

2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.

3. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo” nashriyoti, 2019. – 276 b.

4. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standarti.

5. Yuldasheva D. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. Darslik. –Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” nashriyoti, 2021.– 424 b

6. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi (I-II). Darslik – Toshkent: “Innavatsiya-ziyo” nashriyoti, 2022. – 400 b. // – 392 b.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*